

DUNYO XALQLARINING QONUNSIMON CHOLG'ULARI

Xursanova Umida Ravshanovna

O'zDSMI Xalq ijodiyoti (cholg'u ijrochiligi) mutaxassisligi magistranti

Ilmiy rahbar: X.Beknazarov

"Cholg'u ijrochiligi" kafedrası dotsenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dunyo xalqlari qonunsimon cholg'ulari tuzilishi, kelib chiqish tarixi, takomillashuvi, ovoz va ijro xususiyatlarining bir-biridan farqlanishi va o'zbek qonun cholg'usi bilan imkoniyat darajalarini solishtirish masalalari muhoka qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Musiqqa, qonunsimon cholg'ular, zither, gayageum, guzheng, koto, qonun.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются строение, история происхождения, совершенствование, особенности звучания и исполнения народных щипковых инструментов разных стран мира, а также проводится сравнение их возможностей с узбекским инструментом — канун.*

Ключевые слова: *Музыка, струнные инструменты, цитра, гаягым, гучжэн, кото, канун.*

Annotation: *This article discusses the structure, origin, development, sound, and performance characteristics of plucked musical instruments from different nations of the world, as well as compares their capabilities with the Uzbek instrument — the qanun.*

Keywords: *Music, stringed instruments, zither, gayageum, guzheng, koto, qanun*

Torli cholg'ular uzoq tarixga ega bo'lib, eng birinchi torli cholg'ular kamondan kelib chiqqan. Eng qadimgi torli musiqa cholg'usi lira bo'lgan. Qonun (yoki qonunga o'xshash) cholg'u topilmalari, asosan, qadimgi Sharq sivilizatsiyalariga, xususan, Mesopotamiya va Misrga tegishli. Bu davrlar miloddan avvalgi III-ming yillikga borib taqaladi. O'zbekiston va umumiy o'rta Sharq mintaqasida, qonunga o'xshash cholg'ularning eng qadimgi shakllari, bir necha ming yillik tarixga ega. Arxeologik qidiruvlar paytida qadimgi Mesopotamiya, Ur shahri va Bobil xarobalaridan topilgan qazilma boyliklar orasida torli va karnayga o'xshash musiqiy cholg'ulari topilgan. Bu topilmalar, torli cholg'ularning qadimiyligidan dalolat beradi.

Dunyo xalqlari qonunsimon cholg'ulardan keng foydalanib kelishmoqda. Qonunsimon musiqa cholg'ulari tirnab chalinadigan cholg'ular guruxiga kiradi. Musiqiy cholg'ular har bir millatning ma'naviy boyligidir. Ular yillar davomida o'ziga xos tarzda shakllanib rivoj topib kelgan. Hozirgi kunga qadar o'z nufuzini yo'qotmay kelmoqda.

Dunyo qonunsimon musiqa cholg'uslaridan biri Zitherdir. U 18-asrda Avstriya va Germaniyada keng tarqalgan torli cholg'u bo'lib, vengerlar orasida ham mashhur. U tekis, noto'g'ri shaklli yog'och korpusga ega (uzunligi taxminan 55 sm va kengligi taxminan 25-30 sm), ustiga 15 dan 50 gacha torlar (asbobning o'lchamiga qarab) tortiladi. Torlar qo'l bilan chertiladi yoki tirnoqlar yordamida ijro etiladi. Ba'zan esa bogen (yog'och tayoqcha) yordamida ham ijro etiladi. Zitherning turli variantlarida ijro usullari farq qilishi mumkin, lekin

ko'pincha torlar chertiladi yoki bosiladi. Zither an'anaviy va folklor musiqasida keng qo'llaniladi, shuningdek, zamonaviy va eksperimental musiqa janrlarida ham ishlatilmoqda. Zitherning uch xil turdagisi bor kontsert zither (nemis: Konzertzither), Alp zither va akkord zither yoki gitara zither. Konser zither 29 dan 38 tagacha torga ega bo'lishi mumkin, eng ko'pi 34 yoki 35tagacha torli bo'ladi. Alp zitherida 42 dan 45 tagacha tor mavjud bo'ladi. Akkord zitherida torlar soni 15 dan 50 tagacha tor bo'ladi. Konsert va alp zitherlarini chalganda torlarni chap qo'lning barmoqlari bilan bosiladi va o'ng qo'l bosh barmog'i bilan tortiladi. O'ng qo'lning birinchi va ikkinchi barmoqlari bas torlarini, uchinchi barmog'i esa kontrabas torlarini tortadi (bu texnikaning boshqa variantlari ham mavjud), ba'zi musiqachilar 4 barmog'iga ham noxun taqib ijro etishadi. Bu usul tovushni baladroq va kuchliroq ijro etilishini ta'minlaydi. Akkord zither kontsert va alp zitherlaridan farq qiladi. O'ng va chap qo'l bilan tirnab chalinadi.

Gayageum - Koreya an'anaviy torli cholg'u asbobi. Gayageum taxminan 6-asrda Koreya yarimorolidagi Gaya qirolligi davrida yaratilgan. Aynan shuning uchun "Gayageum" deb atalgan — ya'ni "Gaya qirolligining cholg'usi". Gayageum odatda qizil qarag'ay yoki boshqa mahalliy yog'ochdan yasaladi. Uzunligi taxminan 160 sm. Torlar yuqoridan pastga qarab yengil qiyalik bilan joylashtirilgan. Har bir tor ostida kichik ko'tarma tayanch (ji) bo'ladi, ularni surib turish orqali tovush sozlanadi. Torlar ilgari ipakdan bo'lgan, hozirda esa ba'zida sintetik materiallardan ham foydalaniladi. Torlar soni esa an'anaviy gayageumda 12 ta tor bo'lgan. Ammo zamonaviy versiyalarida 18, 21, 25 yoki hatto 27 torli turlari mavjud. Uzun yassilangan yog'och cholg'u, ustida qator torlar bor. Har bir tor ostida kichkina yog'och tayanch. Cholg'u dizayni nafis, ko'pincha o'yma bezaklar bilan bezatilgan. Musiqachi uni yerga yoki tizzasiga qo'yib chaladi, har bir chertilgan tor yurakni junbushga keltiradi.

Musiqachi gayageumni yerga qo'yib yoki tizzasiga olib, uni chertib chaladi. O'ng qo'l torlarni chertadi, chap qo'l esa torlarni bosib, tovushni o'zgartiradi (vibratsiya, surilish, egilish). Ijro texnikasi juda nozik bo'lib, emotsional va lirik ifoda kuchi juda balandi. Gayageumda an'anaviy koreys musiqasi – “gagok” chaliladi. Shuningdek, zamonaviy bastakorlar tomonidan klassik, jazz, pop va eksperimental janrlarda ham ishlatilmoqda. Mashhur asarlaridan biri “Sanjo” (improvizatsion musiqiy shakl), “Byeongchang” va boshqalar.

Xitoy qonunsimon cholg'ularidan biri guzhengdir. Guzheng kelib chiqishi haqida turli xil ma'lumotlarga ega. Dastlabki guzhengga o'xshash cholg'uni Qin sulolasining generali Men Tyan ixtiro qilgani aytiladi. Yana bir ma'lumotda esa, guzheng dastlab Shuo wen Jiezi kitobida yozilganidek, bambuk trubasi sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, keyinchalik uning o'rniga qavs shaklidagi yog'och taxta yasali b torlar tagiga harakatlanuvchi xarraklar qo'yilgan. Bir vaqtlar torlari ipakdan qilingan. Qing sulolasi davrida (1644-1912) torlar faqat mis kabi simlarga o'tdi. Zamonaviy torlar po'lat simlardan tortilmoqda bu torlar tembrni saqlab cholg'uning ovozini baladroq eshitishtirishini ta'minlaydi. Zamonaviy guzheng odatda 21, 25 yoki 26 torga ega, uzunligi 160 sm va katta pentatonik shkalada sozlangan bo'ladi. U Paulownia yog'ochidan yasalgan katta, rezonans ovozli taxtaga ega. Guzheng ijrochilari ko'pincha bir yoki ikkala qo'lga plastik, qatron, toshbaqa yoki fil suyagi kabi materiallardan tayyorlangan barmoqlar uchun

maxsus mediatorlar kiyishadi. U janrga qarab po'lat torlar yoki ipak torlar tortilgan bo'lishi mumkin. Eng keng tarqalgan guzheng 21 qator torlarga ega.

Koto - Yaponiya milliy cholg'usi . Kotoning uzunligi taxminan 180 santimetr (6 fut) bo'lib, Paulownia yog'ochidan(Paulownia tomentosa kiri nomi bilan tanilgan) yasaladi. Kotoning eng keng tarqalgan turidan biri sozlash uchun ishlatiladigan harakatlanuvchi xarraklarlarga bog'langan 13 ta torlisidir. Ansambllarda bas rolini bajaradi O'n etti torli koto ham qo'llaniladi. Koto torlari odatda o'ng qo'lning dastlabki uchta barmog'iga kiyiladigan tsume(noxun) yordamida tirnab chalinadi.

Kotoning ajdodi xitoy milliy chog'usi guzheng. Yaponiyaga birinchi marta 7-8-asrlarda Xitoydan olib kelingan. Ilk boshida torlari beshta qator bor edi, keyinchalik torlar yetti qatorga ko'tarildi. Yapon kotosi Osiyo zither oilasiga mansubdir. Bu xilma-xil cholg'u ikki asosiy shaklda bo'lgan: xarrakli va xarraksiz. Cholg'uning har bir qismi madaniy ahamiyatga ega. Yog'och quritiladi va aniq o'lchamlarga bo'linadi. Standart zamonaviy kotodagi ovoz panelining o'lchami taxminan 182 santimetr bo'ladi. Xarraklari suyagidan qilingan, bugungi kunda odatda plastmassadan, ba'zan esa yog'ochdan yasaladi. Xarraklarni harakatlantirish orqali torning balandligini o'zgartirish mumkin. Ba'zi juda past notalar uchun kichik xarraklar qo'yiladi. Sozlash ehtiyojiga qarab uch xil balandlikdagi maxsus xarraklar qo'yiladi. Ba'zi juda past notalar uchun kichik xarrak mavjud bo'lmaganda, ba'zi ijrochilar favqulodda chora sifatida xarraklardan teskari foydalanishlari mumkin. Uzunligi taxminan 180 va kengligi 30sm bo'lgan koto an'anaviy ravishda tiz cho'kkan ijrochining oldida yerga qo'yilgan holda ijro etiladi.

Torlar turli xil materiallardan tayyorlangan. Odatda sarg'ish rangdagi ipak torlar, zamonaviy torlarga qaraganda qimmatroq va past chidamliligiga qaramay, hali ham ishlab chiqarilamoqda. Ba'zi musiqachilar zamonaviy torlardan tovush sifati farqini sezib, ularni afzal ko'rishadi. Torlar sigaret qoldig'idek kattalikdagi qog'oz yoki karton qog'ozga yarim ilmoq bilan bog'lanadi, kotoning bosh qismidagi teshiklardan o'tkazib, orqa tarafidagi teshiklardan o'tkazib, mahkamlanadi va maxsus tugun bilan bog'lanadi. Torlar maxsus mashina bilan tortilishi mumkin, lekin ko'pincha qo'l bilan tortiladi va keyin bog'lanadi.

Turk qonuni(kanun) turk musiqasida muhim o'rin tutadi. Turklar qonun cholg'usini "kanun" deb nomlashadi. Kanun cholg'usi turk musiqa ansambli uchun ajralmas bo'lgan kuchli cholg'u hisoblanadi . Turk musiqasiga kanun Usmoniylar imperiyasi davrida, 19 - asrda Qohiradan suriyalik muhojir tomonidan kirib kelgan deb taxmin qilishadi. Qadimgi kanun cholg'usi bilan hozirgi kanun o'rtasida farq bor, uning ilk namunalari Istanbullik kanun cholg'uchisi Mahmut Usta tomonidan yasalgan.

Turk musiqashunosi Rauf Yektaning so'zlariga ko'ra, muntazam diatonik sozlangan qonunda mandal(urb) texnologiyasi birinchi marta Albert Lavinyakning 1922 yilgi Encyclopédie de la Musique et Dictionnaire du Conservatoire nashriga turk musiqasiga bag'ishlangan monografiyasini taqdim etishidan taxminan 30 yil oldin joriy qilingan. O'sha vaqtgacha Levant qonunlari o'ta moslashuvchan bo'lmagan va ijro etish uchun mashaqqatli bo'lib qolgan (ayniqsa, talabchan modulyatsiyalar/transpozitsiyalar tobora ommalashib borayotganligi sababli, ular G'arb ohanglari va asosiy o'zgarishlarga taqlid qilganda) ijrochidan

tor oralig'ining eng chap uchlarini bosish uchun bosh barmog'ining tirnog'idan foydalanishni talab qilar edi. Bir necha o'n yillar o'tgach, elektron tyunerlarning paydo bo'lishi bilan qonunga mos yozuvlar mandallarini joylashtirishni standartlashtirish boshlandi. Turkiy kanunining o'lchamlari odatda uzunligi 95-100 sm, eni 38-40 sm va balandligi 4-6 sm bo'ladi.

Qonun o'tirgan yoki cho'kkalab o'tirgan holatda yoki ba'zan estakada tayanchida torlarni ikkita toshbaqa chig'anog'i (har bir qo'l uchun bittadan) yoki tirnoqlari bilan yulib o'ynaladi va standart diapazoni kichik oktava si bemoldan uchunchi aktava fa gacha bo'lgan uch yarim oktava diapazoniga ega bo'lib, sol gacha cho'zilishi mumkin. Cholg'uda, shuningdek, mandallar deb ataladigan har bir tovush ostida maxsus metall tutqichlar yoki mandallar mavjud. Cholg'u chalinayotganda ijrochi tomonidan tez ko'tarilishi yoki tushirilishi mumkin bo'lgan bu kichik tutqichlar samarali tor baladligini o'zgartirish orqali ma'lum bir yo'nalish balandligini biroz o'zgartirishga xizmat qiladi.

Ozarbayjon milliy musiqa cholg'usi "qonun" (конын) — Ozarbayjonning an'anaviy simfonik cholg'usi bo'lib, uning tarixi ko'p asrlarni qamrab oladi. Qonun — bu torli cholg'u bo'lib, o'zining o'ziga xos sado va ijro texnikasi bilan ajralib turadi.

Qonun cholg'usi uzun, yassi korpusga ega bo'lib, uning ustiga torlar tortilgan. Torlar odatda 72 ta bo'ladi. Cholg'uni chalishda maxsus mezzoblar (noxunlar) ishlatiladi. Qonun Ozarbayjon musiqa merosida keng qo'llaniladi va o'ziga xos estetikaga ega. Qonun cholg'usi Ozarbayjonda nafaqat xalq musiqa, balki an'anaviy orkestrlarda ham keng tarqalgan. Odatda bu cholg'u jahon musiqasining eng go'zal va nozik elementlaridan biri sifatida tan olinadi.

Arab qonun cholg'usi — bu arab xalqlarining an'anaviy musiqa madaniyatida muhim o'rin tutadigan, torli cholg'u hisoblanadi. Uni ba'zan qanun (قانون) deb ham atashadi. U sharqiy musiqa an'analariida keng tarqalgan bo'lib, ayniqsa, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Turkiya, va Markaziy Osiyoda mashhur. Hozirgi zamon arab estrada va folklor ansambllarida ham ishlatiladi. Trapetsiya shaklidagi (trapezoid) yog'och korpusga ega. Arab qonun cholg'usida 26 dan 27 gacha torlar bo'lib, har bir nota 3 tor bilan ifodalanadi, ya'ni jami 78—81 tor bo'lishi mumkin. Torlar plektum (turli nomlar bilan ataladi, masalan, mizrab, noxun) yordamida chaliladi. Torlar o'ng qo'l bilan chalib, chap qo'l esa torlarga bosim berib, tovushni o'zgartiradi yoki notani banadligini sozlaydi. Odatda ijrochi cholg'uni tizzasiga yoki stolga qo'yib chaladi. Ikkita barmoqqa kiydirilgan metall yoki plastmassa mizrab (plectum, noxun) bilan torlarni tirnab chalinadi.

O'zbek xalq cholg'ularidan biri bo'lgan qonun cholg'usi ko'p asrlik tarixga ega musiqa cholg'ularidan biri hisoblanib buyuk bobokalonlarim o'z asarlarida ushbu cholg'uga ta'rif berib o'tishgan. Kelib chiqish tarixiga ko'ra o'rta Sharq musiqa cholg'usi hisoblangan Darveshali Changiy tomonidan XVII asrda yozilgan "Risolaiy musiqiy" da qonun cholg'usi qadimiyligi haqida aytib o'tgan. Bundan tashqari buyuk bobakalonlarimizdan biri Abu Nasr Farobiy ham o'zining "Katta musiqa kitobi" asarida qonun cholg'usi haqida yozib o'tganlar. Uzoq yillik tarixga ega bo'lgan qonun cholg'usi o'tgan asrning 30-yillariga kelib O'zbekistonda foydalanilmay qoladi. 1978-1980 yillarga kelib mohir sozanda, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artis professor Abdurahmon Xoltojiyev tomonidan qayta yurtimizga olib kelinadi.

Ozarbayjon o'lkasidan olib kelingan qonun cholg'usi qadimgi qonun cholg'ularidan ko'rinishi jihatidan farq qilgan. Hozirgi biz foydalanib kelayotgan qonun cholg'uyimiz trapetsiya shaklidagi cholg'udir. Noxun va mediatorni ko'rsatkich barmoqlarga kiydirilib ijro etiladi. Qonun chinor, tut, yong'oq, o'rik daraxtlari yog'ochlaridan tayyorlanadi. Ko'rinishi jihatidan trapetsiya shakliga ega uzunligi 800-900 mm eni 380-400 mm hisoblangan qonun urma torli cholg'ular guruhiga kiradi. Daraxt yog'ochidan yasalgan deka (qopqoq) qismi asosiy qism hisoblanadi. Dekaning ozroq qismi esa hayvon terisi bilan qoplanadi. Qopqoqning ustida turli naqshlar tushirilib tovushxonalar ochiladi. Deka (qopqoq) oralig'ida uchta ichak torlar joylashadi. Asosan bu torlar 72-75 donani tashkil etadi. To'g'ri burchak tarafida torlar o'tqaziladigan teshikchalar mavjud bo'lib torlar o'tqazilgadan keyin yopib qo'yiladigan yog'ochdan yasalgan maxsus bo'lak mavjud bo'ladi. Uchburchak shakliga ega tarafida esa maxsus kalit bilan burashga mo'ljallangan torlar o'tqazib tortiladigan yog'och quloqlar mavjud bo'ladi. Teri qoplangan joyida, torlar ostida uzun yog'ochdan yasalgan xarrak joylashadi. Ushbu xarrakka qarama qarshi tarafda shayton xarrak joylashib torlar uning ostidan o'tqaziladi. Shayton xarrak yonida Urb deb ataluvchi metaldan yasalgan moslamalar joylashgan ularning soni bittadan uchtagacha bo'ladi. Urb moslamasi ijro vaqtida torlarni kichik sekundadan kichik tersiyagacha ko'tarib tushirish imkonini beradi. Qonun cholg'usi noxun va mediator yordamida tirnab chalish orqali ijro etiladi. Mediator uzunligi 30-40 mm qalinligi 1,5-2 mm eni 0,5-0,7 mm bo'ladi. Noxun uzunligi 25-30 mm eni 10-15 mm bo'lib ijrochining qo'liga oson moslashtiriladigan qilib metaldan yasaladi. Barmoq va noxun orasiga mediator kirgizib qo'yiladi.

Qonun cholg'usi asosan ikki ko'rinishda ijro etiladi:

1-o'tirgan holatda tizzalar ustiga qoyilib.

2-qonun uchun yasalgan moslamaga qo'yilib turgan holatda.

Biz tanishib chiqqan musiqa cholg'ulari ko'rinishi, diapazoni jihatdan bir biridan keskin farq qilsada ularni birlashtirib turuvchi bitta omil bu cholg'ularning barchasi barmoqlar yoki mediatorlar yordamida tirnab chalinadi. Ohanglar ham bir biridan farq qilishiga qaramasdan mayin va jozibadorligi bu cholg'ularni bir oiladek yaqinlashtiradi.

Yuqorida tanishib chiqqan qonunsimon cholg'ularimiz bir-biridan ko'rinishi tuzilishi jihatdan farq qiladi. Yevropa cholg'ularidan biri bo'lgan zitherni 3 xil turi uchraydi ularning o'zi tuzilish, ko'rinish va ijro jihatdan farq qiladi. Yaqin sharqda joylashgan Xitoyda guzheng va siyansin cholg'ulari mavjud. Ikki qonunsimon cholg'uning ham farqlari bor. Masalan guzhengda xarralar bor va ijroda mediator(noxun) yordamida tirnab chalinsa, siyansin barmoqlar yordamida tirnab ijro etiladi. similar soni va cholg'uning ko'rinishida ham farq bor. Korea qonunsimon cholg'usi hisoblangan gayageum ham ko'rinish jihatidan koto cholg'usiga o'xshashdir. Yapon koto cholg'usi mediatorlar(noxun) yordamida tirnab chalinadi. gayageumdan farqi ham shunda. Turk kanun cholg'usi tuzilish va ijro usuli bilan arab ozorbayjon va o'zbek qonun cholg'ularidan farq qilashada diapazon jihatidan farq qiladi. Ushbu cholg'ularning qonun

cholgʻusidan asosiy farqlaridan biri xarakterlarining surilishida boʻlsa yan bir farqi urb moslamasidadir.

Yuqorida sanab oʻtilgan, Yaponiya, Xitoy va Korea cholgʻulari orasida ovozi jihatdan koto cholgʻusini mukammalroq va yoqimli deb olsak boʻladi. Turkiya, Ozorbayjon, Arab va Oʻzbek cholgʻulari orasida esa turk kanun cholgʻusi mukammaldir.

Cholgʻu nomlari	Tuzilishi	Plektrumlari (noxun,mediator)	Diapazoni
Zither	Konsert zither: toʻgʻri toʻrtburchak rezonansli Alp zither: chap tomon yuqori burchagida yarim oy shakli qoʻshilgan	Plektrum(noxun) va barmoq bilan chalinadi. Noxunlar plastikdan yasaladi	3-3.5 oktava Kichik oktava mi dan uchunchi oktava lyagacha
Gayageum	Uzun yassilangan	Barmoqlar bilan ijro etiladi	2.5-3 oktava
Guzheng	Qavs shaklida	Noxun Plastik va fil suyagidan	3-4 oktava Birinchi oktava do dan uchunchi oktava si gacha
Koto	Uzun yon tomonidan yarim oy shaklida	Noxun plastik	2.5-3 oktava Birinchi oktava do dan ikkinchi oktava lyagacha
Turk kanuni	Trapetsiya Boʻyi 95- 100sm eni 30-40 sm	Noxun va barmoqlar	3 oktavadan 3,5 oktavagacha
Ozorbayjon qonuni	Trapetsiya Boʻyi 80-90 sm eni 30-35 sm	Noxun Plastik	3 oktavadan 3,5 oktavagacha
Arab qonuni	Trapetsiya boʻyi 90- 100sm eni 30- 40sm	Noxun Plastic	3 oktavadan 3,5 oktavagacha

O'zbek qonuni	Trapetsiya Bo'yi 80-90sm eni 38-40sm	Noxun plastik	3 oktavadan 3,5 oktavagacha
---------------	--	---------------	-----------------------------

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki dunyo xalqlarining qonunsimon cholg'ulari musiqiy madaniyatni shakllantiruvchi va xalqning ichki dunyosini ifodalovchi muhim elementlar hisoblanadi. Har bir cholg'u o'z xalqining tarixiy va madaniy xususiyatlarini aks ettirib, musiqiy an'analarning davomiyligini ta'minlaydi. Masalan, rus gusli – o'zining boy melodiyalari va xalq musiqasidagi muhim o'rni bilan ajralib turadi, latviya zitheri esa o'zining zamonaviy va an'anaviy musiqiy shakllari bilan mashhur. Koreya geyageumi esa o'zining betakror ohanglari bilan, asosan, drama va teatrlarda ishlatiladigan cholg'u sifatida xalqning ruhiy dunyosini aks ettiradi. Turk qonuni – orientallik va musiqa boyligi bilan ajralib, turk xalqining jahon musiqasiga qo'shgan katta hissi hisoblanadi. Nihoyat, o'zbek qonuni ham o'zining noan'anaviy ohanglari va o'ziga xos struktral xususiyatlari bilan o'zbek musiqasining jonli timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Shu tariqa, har bir xalqning qonunsimon cholg'usi musiqaning turli ranglarini, tuzilmalari va melodiyalarini taqdim etadi, bu esa musiqiy xilma-xillikni hamda xalqiy madaniyatlarning boyligini ko'rsatadi. Bularning barchasi, dunyo xalqlarining turli cholg'ularining nafaqat musiqiy qiyofasini, balki ularga asoslanadigan madaniy va tarixiy merosni ham aks ettirishini ko'rsatadi. Gusli, zither, geyageum, qonun kabi cholg'ular har biri o'z xalqining ichki ruhiyatini, estetik qarashlarini, tarixiy jarayonlarini va madaniyatini o'zida mujassamlashtiradi. Ular musiqaning o'ziga xos ranglarini, shakllarini va shakllanish jarayonlarini taqdim etadi. Shu tarzda, har bir cholg'u nafaqat o'z xalqining musiqiy an'anasining ajralmas qismi, balki butun insoniyat musiqasining xilma-xilligini va boyligini ko'rsatadigan bir vosita sifatida xizmat qiladi. Musiqiy an'analar va cholg'ularning xilma-xilligi, xalqlarning o'zaro aloqalari va o'zgarishlarga qanday javob berganini, ularning madaniy rivojlanishini hamda xalqning zamonaviy dunyoga qanday ta'sir ko'rsatganini tushunish uchun muhim bir daraja hisoblanadi. Har bir cholg'u o'z xalqining ruhini, hissiyotlarini, qarashlarini va hayotini aks ettiruvchi bir musiqiy til sifatida qoladi. Musiqa-xalqlarning ruhini, tarixini va madaniyatini ifodalovchi vosita sifatida qoladi. O'zbek xalq cholg'usi hisoblangan qonun cholg'usini ham ijrosi kengroq va yaxshiroq bo'lishi uchun sozgarlik tomonlama ba'zi o'zgartirishlar kiritilsa naqsadga muvofiq bo'lgan bo'lardi. Masalan urb moslamalarini ko'paytirish va nim parda tovushlarini ham hosil qilish mumkin. Yana bir e'tibor qaratishimiz kerak bo'lgan tarafi ijro texnikalarida. aynan bizning qonun ijrochilarimiz faqat ikkita ko'rsatkich barmoqlar orqali ijro etishadi. Agarda turk ijrochilari singari tirnoqlar yordamida boshqa barmoqlarni ham qo'shib chalsang balki shtrixlar va asarlar jozibasi yanada oshar. O'zbek ijrochilari turk ijrochilari bilan tajriba almashgan xolda ijro texnikalari va qo'l xarakatlarini bizning ham o'qitish tizimlarimizda ishlatsak ijrochi etilayotgan asarlarimiz yanada chiroyli eshitilgan bo'lardi. Ijrochilar ham ko'p kuch sarflamasdan tempi tez bo'lgan asarlarni ohangdor va jozibali ijro etishgan bo'lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Xoltojiyev “An’anaviy qonun cholg‘u va ijrochiligi” darsligi Toshkent 2005-yil.
2. S.Abdullayev “Qonun” darslik A.Qodiriy nashriyoti. Toshkent 2004-yil.
3. Shermatov K. PERFORMANCE FEATURES OF CHANG INSTRUMENT AND CHANGSIMAN INSTRUMENTS //Teoreticheskiye aspekti stanovleniya pedagogicheskix nauk. – 2024. – T. 3. – №. 22. – S. 30-33.
4. <https://share.google/etCGIIRYxDpuqrR4t>
5. <https://share.google/t1r0ZiwDWrpao4gKl>
6. <https://share.google/yzfHADXFjmtBpmbKq>
7. <https://en.wikipedia.org/wiki/Gayageum>
8. [https://en.wikipedia.org/wiki/Koto_\(instrument\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Koto_(instrument))
9. <https://en.wikipedia.org/wiki/Guzheng>
10. <https://share.google/nSrLsyVOFbk7Wqbrm>